

**XIX ASRDA AFG‘ONISTON VA BUYUK O‘YIN: ROSSIYA VA
BRITANIYA IMPERIALIZMINING TA’SIRI**

TAFU “Tarix va filologiya” yo‘nalishi
III-bosqich talabasi **Amandulayeva Gulnigor**
gamandulayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola, XIX asrda dunyo siyosiy xaritasida imperiyalar o‘rtasidagi raqobat avj olgan davr hisoblanadi. Shu jarayonda Afg‘oniston geografik jihatdan Markaziy Osiyo bilan Janubiy Osiyo o‘rtasida joylashgani sababli strategik ahamiyat kasb etadi. Rossiya imperiyasi shimoldan janubga tomon o‘z ta’sirini kengaytirishga intilar, Britaniya esa Hindistondagi mustamlakasini himoya qilish maqsadida shimoliy chegaralarda xavfsizlikni ta’minlashga urinardi. Maqolada ingliz-afg‘on urushlari, Rossiyaning Markaziy Osiyodagi siyosati hamda Afg‘onistonning tampon davlat sifatidagi mavqei tahlil qilinadi. Tadqiqot Afg‘onistonning strategik o‘rni, mustaqillik uchun kurashi va “Buyuk o‘yin” oqibatlarini ilmiy manbalar asosida tahlil etadi..

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, Buyuk o‘yin, Rossiya imperiyasi, Britaniya imperiyasi, Markaziy Osiyo, geosiyosat, mustaqillik, tampon davlat.

Аннотация: Статья посвящена периоду XIX века, когда на политической карте мира обострилось соперничество империй. В этом процессе Афганистан приобрел стратегическое значение благодаря своему географическому положению между Центральной и Южной Азией. Российская империя стремилась расширить своё влияние с севера на юг, в то время как Великобритания стремилась обеспечить безопасность своих северных границ для защиты своей колонии в Индии. В статье анализируются англо-афганские войны, политика России в Центральной Азии и положение Афганистана как буферного государства. В исследовании на основе научных источников анализируются стратегическое положение Афганистана, его борьба за независимость и последствия «Большой игры».



Ключевые слова: Афганистан, Большая игра, Российская империя, Британская империя, Центральная Азия, геополитика, независимость, буферное государство.

Abstract: This article is about the 19th century, when the rivalry between empires intensified on the world political map. In this process, Afghanistan gained strategic importance due to its geographical location between Central Asia and South Asia. The Russian Empire sought to expand its influence from north to south, while England sought to ensure security on its northern borders to protect its colony in India. The article analyzes the Anglo-Afghan Wars, Russia's policy in Central Asia, and Afghanistan's position as a buffer state. The study analyzes the strategic position of Afghanistan, its struggle for independence, and the consequences of the "Great Game" based on scientific sources.

Keywords: Afghanistan, The Great Game, Russian Empire, British Empire, Central Asia, geopolitics, independence, buffer state.

Kirish.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida jahon siyosatida "Buyuk o'yin" nomi bilan mashhur bo'lgan tarixiy voqea, asosan Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o'rtasidagi Markaziy Osiyo ustidan nazorat uchun olib borilgan siyosiy, harbiy va diplomatik raqobat bilan tavsiflanadi. Bu davrda Afg'oniston strategik jihatdan nihoyatda muhim o'rin tutgan, chunki u ikki yirik imperiya — shimoldan Rossiya, janubdan esa Britaniya Hindistonining chegaralari o'rtasida joylashgan tampon (oralik) davlat sifatida tarix sahnasiga chiqqan. Bundan tashqari, fuqarolar urushi mamlakatni yangi og'ir sinovlar davriga tortdi a u vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash, iqtisodiy qoloqlikni bartaraf etish, qashshoqlik, savodsizlik va boshqa dolzarb iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal etishni orqaga surdi. Shubhasiz, Afg'onistonning Turkiston o'lkasi bilan munosabatlariga ham bevosita dahl qilar edi.¹XIX asrning birinchi yarmida Rossiya imperiyasi bosib olgan Turkiston yerlari Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lib qoldi. Shu bilan birga, Britaniya

¹ Riskulov Shoxjaxon Narmaxamatovich. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Afg'onistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o'rni va uning Turkiston bilan aloqalari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent: 2025. – 5 b.



Hindistonidagi mustamlaka boshqaruvi uchun xavfsizlik masalasi kun tartibiga chiqdi. Britaniya imperiyasi uchun Afg'oniston Hindistonni Rossiya bosqinidan himoya qiluvchi “tampon davlat” sifatida muhim edi. Britaniyalik siyosatchilar Rossiyaning janubga — issiq dengizlar tomon siljishini o'z mustamlakalariga tahdid sifatida qabul qilgan. Shu tariqa, Afg'oniston nafaqat geosiyosiy, balki geostrategik jihatdan ham muhim maydonga aylandi. 1839–1842 va 1878–1880-yillarda kechgan ingliz-afg'on urushlari Buyuk o'yin jarayonining eng keskin bosqichlarini tashkil etadi. Ushbu urushlar natijasida Afg'oniston o'zining tashqi siyosatida qisman cheklovlarga duch kelgan bo'lsa-da, mamlakatning ichki mustaqilligi saqlanib qoldi. Bu esa keyinchalik afg'on xalqining milliy ongini shakllantirish va mustaqillik uchun kurash jarayonlariga turtki bo'ldi.

Shunday qilib, XIX asrda bu ikki yirik davlat o'rtasida Afg'oniston ustidan siyosiy raqobat boshlandi. Tarixda bu jarayon “Buyuk o'yin” (The Great Game) nomi bilan mashhur.² “Katta O'yin” tushunchasi dastlab ingliz razvedkasi ofitseri Artur Konnoli tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi geostrategik kurashni tavsiflash uchun ishlatilgan³. Ushbu atama o'zining siyosiypsixologik va mafkuraviy talqinini Redyard Kiplingning asarlari orqali keng ommaga yetib borgan. Tarixshunos David Fromkin o'zining “A Peace to End All Peace” asarida “Katta O'yin”ning Yaqin Sharqdagi geosiyosiy oqibatlarini batafsil tahlil qilib, uni XIX asrda boshlangan va bugungi kungacha davom etayotgan global raqobatning uzviy qismi sifatida ko'rsatadi⁴.

Ikki buyuk imperiya o'rtasidagi yashirin raqobat, diplomatik fitnalar va harbiy ekspeditsiyalarni ifodalagan. Aslida bu jarayon oddiy hududiy mojaro emas, balki butun Osiyo taqdiri uchun olib borilgan siyosiy kurash edi.

XIX asrda Angliya yer-mulklari ulkan, jahonning eng yirik mustamlakachi mamlakati edi. Bir qancha davlatlar va xalqlarni qamrab olgan Hindiston yarim orolida bosqinchilik va mustamlaka ekspluatatsiyasi uchun ingliz burjuaziyasining

² Hopkirk, Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London: John Murray, 1990.

³ Kaye, John W. History of the War in Afghanistan. London: W.H. Allen, 1851.

⁴ Fromkin, David. A Peace to End All Peace: The Fall of the Ottoman Empire and the Creation of the Modern Middle East. Holt, 1989.



asosiy tashkiloti “Ost-Indiya” kompaniyasi bo‘lib, u doimiy ravishda bosqinchilik urushlarini olib bordi. Ost-Indiya kompaniyasi Osiyo qit‘asining istalgan joyini Britaniya mulki deb e‘lon qilishi va istalgan joyiga qo‘shin yuborishi mumkin edi. Xususan, Markaziy Osiyoda joylashgan Afg‘oniston o‘zining qulay geografik joylashuvi tufayli savdo-sotiq, siyosiy va strategik jihatdan Britaniyanig alohida qiziqish markazida bo‘lgan. Bundan tashqari, u Hindiston, Eron, Xitoy va o‘zbek xonliklari bilan ham chegaradosh bo‘lib, o‘z vaqtida jahon sivilizatsiya rivojiga anchagina katta xissa qo‘shgan va XIX asrda o‘zining biroz axamiyatini yo‘qotgan mintaqa orqali Xitoydan Yevropaga qadimgi Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan edi. Bu esa Afg‘onistonning geopolitik nuqtai nazaridan ham naqadar muhim hudud ekanligini bildirardi⁵.

Rossiya imperiyasi XIX asr davomida Markaziy Osiyo xonliklarini bosib olib, Afg‘onistonga yaqinlashdi. Biroq Rossiya Hindiston bilan to‘qnashuvdan qochish uchun Afg‘onistonga bevosita bostirib kirmadi. Shunga qaramay, Rossiya Afg‘onistonni o‘zining janubiy strategik hududi sifatida ko‘rdi. Britaniya esa bunga javoban Afg‘onistonni o‘z ta’sir doirasida ushlab turish uchun harbiy, diplomatik va iqtisodiy bosimni kuchaytirdi.⁶

XIX asrning ikkinchi yarmida Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat yuqori darajada noaniqlik va beqarorlik bilan tavsiflanadi. Bu beqarorlikning asosiy manbalari — markazlashmagan hokimiyat tuzilmasi, vorislik uchun olib borilgan o‘zaro kurashlar, qabilaviy ziddiyatlar va tashqi davlatlarning aralashuvi edi. Bu davr Afg‘oniston tarixida “siyosiy inqirozlar” davri sifatida namoyon bo‘ldi⁷. Amir Sheraxonning hukmronligi davridagi eng jiddiy siyosiy mojarolardan biri uning o‘g‘li Yoqubxon bilan bo‘lgan ziddiyatlar edi. 1874-yildagi xabarda ta’kidlanishicha, “Amir Sheraxo o‘z o‘g‘li Yoqubni valiahd deb tayinlagan, biroq

⁵ Хилоятов.Г.А, Британская экспансия в Средней Азии, Т,981, с.7

⁶ Noelle-Karimi, Christine. *The Pearl in Its Midst: Herat and the Mapping of Khurasan (15th–19th Centuries)*. Wien, 2014.

⁷ Abduvahob Abdurasul o‘g‘li Egamberdiyev. Afg‘onistonda ichki siyosiy beqarorlik va hokimiyat uchun kurashlar (XIX asr ikkinchi yarmi) // XXI asr: fan va ta’lim masalalari. – 2025. – №2. – B. 238. – ISSN 2181-9874. – DOI: 10.5281/zenodo.16332816



uning itoatsizligi va mustaqil harakatlari mamlakatda siyosiy beqarorlikka sabab bo'ldi"⁸

Ichki siyosiy holatning yomonligi va razvedka uchun juda qulay bo'ladi. Natijada, Buyuk Britaniya tomonidan bir qancha razvedka uchun ya'ni ma'lumot to'plash mamlakatning ichki holatini o'rganish maqsadida, maxsus tayyorgarlikka ega ayg'oqchilarni yuboradi. 1865 yilda ayg'oqchi Fayz Baxsh Badaxshon, Vaxan, Pomir. Qunduz, Buxoro va Xivaga safar uyushtiradi va o'zining sayohatini, 1869 yilda Balxda yakunlaydi. Unga yuklatilgan vazifa o'zi bosib o'tgan yo'laning batafsil chizmalarini qog'ozga tushirishdan iborat edi. 1867-1868-yillarida boshqabir ayg'oqchi Manful Badaxshonda bo'ladi. 1868-1869-yillar qishida mayor Montgomeri tomonidan yuborilgan asli Mashhadlik bo'lgan Mirza ismli pandit Badaxshon va Pomir orqali o'tib Sharqiy Turkistonga keladi. Uning asil ismi ma'lum bo'lmagan, ya'ni Montgomeriga ishlagan barcha ayg'ogchilarninc nomlari ular vafot etib ketgunicha sir saqlangan. Mirzo Hindistondagi Ost-Indiya kompaniyasining "kuzatuvchilar" xizmati xodimi sifatida ishlagan. 1867 yilda unga Chitroldan Badaxshonga olib boruvchi qisqa bo'lgan yo'lni topish, Qo'qon va Koshg'ar oralig'idagi yo'llarning xavfsizligini tekshirish vazifasi yuklatiladi⁹. Mirza yaxshi tayyorlangan ayg'oqchi bo'lgan u zamonaviy uskunalaridan foydalanishni, turk va fors tillarini mukammal bilgan yo'llanma ayg'oqchilar orasida (panditlar) Pomirni batafsil va izchil o'rgangan edi. Darhaqiqat Mirza harbiy maqsadlar uchun Pomir o'lkalarining batafsil tasnifini birinchi bo'lib tasvirlagan edi, puxtalik bilan aholi yashash manzillari orasidagi masofalarni hatto ahamiyatsiz bo'lgan kichik yo'llarni ham unutib qoldirmasdan qayd etib o'tgan. U bundan tashqari qo'shinlar uchun lagerlar, yem-xashak, yoqilg'i va zaxiralarni saqlash uchun mos joylarni ham xaritaga tushirgan.¹⁰

XIX asrning 70 yili boshlarida Afg'onistondagi ingliz razvedka faoliyatidi kichik pasayish kuzatildi. Ammo tez orada britaniyalik agentlarning faoligi tufayli

⁸ Туркестанские ведомости, 1874, № 43

⁹ Мушкетов И.В. Туркестан.-Т.1.-ч. 1.- СПб. 1886.

¹⁰ Минаев И, Сведения о странах по верховьям Аму-Дарьи.-СПб 1879



vaziyat o'zgardi. Bunga sabab esa 1873 yilda Xiva xonligining Rossiya podsholigiga qo'shib olinganligi bo'ldi.¹¹

“Buyuk o'yin” davrida Afg'oniston Britaniya bilan uch marta urush olib bordi.

Birinchi ingliz-afg'on urushi (1838–1842) Britaniyaning Afg'onistonga bostirib kirishi natijasida yuz berdi. Rossiya Afg'onistonni qo'llab-quvvatlashga qaror qildi. Afg'onlarning inglizlarga qarshi kurashi boshlig'i Do'st Muhammadga yordam berish uchun general Perovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya qo'shinlari yuborilgan va Xiva masalasini hal qilish ham ko'zda tutilgan. Bu kuch muvaffaqiyatsizlikka uchradi, ammo ruslarning Do'st Muhammad tarafdori bo'lishi afg'on aholisini inglizlarga qarshi kurashga jalb qildi. Shundan so'ng Rossiya Afg'onistonning ichki ishlariga aralashmadi, birinchi navbatda savdo va madaniy hamkorlikni oshirdi. Agar inglizlar bo'lmaganida, mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar sust rivojlanishda davom etardi. Ular janubi-g'arbiy va Markaziy Osiyoda o'z pozitsiyalarini mustahkamlash doktrinasiga mos keladigan Afg'onistonga doimo qiziqish bildirgan. Natijada 1838-1842 yillardagi birinchi ingliz-afg'on urushiga guvoh bo'ldik, bu urush Angliyaga g'alaba keltira olmagan, ammo Angliyaning ishtahasi pasaymagan. 1843 yilda ular Sindni, 1849 yilda Panjobni egallab oldilar. Rossiya va Britaniya manfaatlari chegaralari yaqinlasha boshladi va bu sharoitda neytral chegaralarni belgilash to'g'risida qaror qabul qilindi. 1868 yilda muzokaralar olib borildi va Amudaryo chegara sifatida tan olindi.

Ikkinchi ingliz-afg'on urushi (1878–1880) Rossiyaning diplomatik faolligi ortgan bir paytda yuz berdi. Inglizlar bilan munosabatlar 1870-yillarning oxirida, Stoletovning elchixonasi Afg'onistonga kelganidan so'ng yomonlasha boshladi. Inglizlar ruslarni quvib chiqarishni, ular bilan munosabatlarni uzishni, Britaniya elchixonasini qabul qilishni talab qildilar. Amir rad etdi va bu unga ikkinchi ingliz-afg'on urushiga qimmatga tushdi. Natijada, Gandamak shartnomasi tuzilib, mamlakat Angliyaga qaramlikka aylantirildi. Angliyaga qarshi xalq g'alayonlari

¹¹ Riskulov Shoxjaxon Narmaxamatovich. "XIX asr birinchi va ikkinchi yarmida Angliyaning Afg'onistonga yuborgan ekspeditsiyalari" // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol. 2, Issue 1. – B. 998–1004. – ISSN 2181-1784.



yana avj oldi. Abdurahmonxon yangi amir sifatida tan olindi, biroq u inglizlarning mamlakat tashqi siyosatini nazorat qilishda davom etishini qabul qilishga majbur bo'ldi. Dastlab yangi xon o'z ta'sirini kengaytirishga intilayotgan Angliyaga mos keldi, chunki u bosqinchilik siyosatini olib bordi va bu ularning qo'lida o'ynadi.¹² Keyinchalik, inglizlar Afg'oniston taxtiga o'zlariga sodiq Shoh Shujoni o'tqazgan bo'lsalar-da, afg'on xalqi xalq qo'zg'oloni orqali ularni mamlakatdan quvib chiqardi.

“Buyuk o'yin” natijasida Afg'oniston mustaqil davlat sifatida saqlanib qoldi, biroq tashqi siyosatini mustaqil olib borish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Britaniya 1893-yilda Durand chizig'ini o'rnatib, Afg'oniston va Britaniya Hindistoni o'rtasidagi chegarani belgilab berdi. Bu chiziq keyinchalik ham ko'plab siyosiy nizolarning manbai bo'lib qoldi. Rossiya esa Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini mustahkamladi, natijada bu hudud XX asr boshida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi. Tadqiqot davomida o'rganilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, “Katta O'yin” nazariyasi nafaqat tarixiy fenomen sifatida, balki zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni tushunishda ham muhim metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi. XIX asrdagi klassik “Katta O'yin” davrida ikki imperiya — Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi raqobat Markaziy Osiyoni global siyosat markaziga aylantirgan edi. Bugungi kunda esa bu raqobat yanada murakkablashgan, ko'p tomonlama tus olgan va ko'proq ishtirokchilarni o'z ichiga olgan. Ayniqsa, AQSH, Xitoy, Turkiya, Eron va Yevropa Ittifoqi kabi davlatlarning mintaqaga bo'lgan qiziqishi oshgani, energiya resurslari, transport infratuzilmasi va xavfsizlik masalalari bo'yicha geoiqtisodiy raqobatni kuchaytirmoqda.¹³

Xulosa.

XIX asrda Afg'onistonning tarixiy taqdiri, asosan, Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari o'rtasida kechgan “Buyuk o'yin” siyosiy raqobatining markazida shakllandi. Bu davrda mamlakatning strategik joylashuvi unga nafaqat

¹² Коновалов Александр. Афганский кризис или Большая игра 1885-1895 годов. 09.09.2021

¹³ Rustamaliyev, Jaxongir Fakhriiddin o'g'li. Katta o'yin va uning bugungi Markaziy Osiyodagi aks sadosi. — Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, №3 (2023), Tashkent Namangan branch, Kimyo International University.



Markaziy Osiyoning, balki butun Osiyo siyosiy muvozanatining kaliti sifatida qaralishiga sabab bo'ldi. Shimoldan Rossiyaning janubga tomon ekspansiyasi, janubdan esa Britaniya Hindistonining shimolga siljish harakatlari Afg'onistonni ikki qudratli imperiya o'rtasida tampon davlatga aylantirdi. Buyuk o'yin jarayonida Afg'oniston xalqining mustaqillik uchun kurashi, elita qatlamining siyosiy qarorlari va diplomatik faoliyati mamlakatning keyingi siyosiy taraqqiyotiga zamin yaratdi.

2021 yilda "Tolibon" hokimiyatga kelgach, mamlakatda yangi siyosiy davr boshlandi, biroq beqarorlik, inson huquqlari va iqtisodiy muammolar davom etmoqda. Jamiyatdagi ayollarga nisbatan qo'yilgan talablar ham juda keskin va ta'lim olinishdagi cheklovlar kuchaytirilgan. Shunday bo'lsa-da, Afg'oniston mintaqaviy xavfsizlik va energetik loyihalar uchun muhim o'rin tutadi. Demak, tarix takrorlanmoqda — raqobat shakli o'zgargan bo'lsa-da, Afg'oniston hanuz global siyosat markazida qolmoqda.

Shuni ham aytish joizki, XIX asrda bo'lgani kabi bugungi kunda ham Afg'oniston yirik davlatlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi markazida turibdi. Farqi shundaki, endilikda bu raqobat harbiy emas, balki siyosiy, iqtisodiy va diplomatik shaklda kechmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Afg'oniston barqarorligi nafaqat uning o'z mustahkam siyosiy boshqaruviga, balki xalqaro kuchlarning o'zaro muvozanat saqlashiga ham bevosita bog'liqdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Riskulov Shoxjaxon Narmaxamatovich. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Afg'onistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o'rni va uning Turkiston bilan aloqalari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent: 2025. – 5 b.
2. Rustamaliyev, Jaxongir Fakhridin o'g'li. Katta o'yin va uning bugungi Markaziy Osiyodagi aks sadosi. — Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, №3 (2023), Tashkent Namangan branch, Kimyo International University.
3. Abduvahob Abdurasul o'g'li Egamberdiyev. Afg'onistonda ichki siyosiy beqarorlik va hokimiyat uchun kurashlar (XIX asr ikkinchi yarmi) // XXI asr: fan va



ta'lim masalalari. – 2025. – №2. – В. 238. – ISSN 2181-9874. – DOI:
10.5281/zenodo.16332816

4. Мушкетов И.В. Туркестан.-Т.1.-ч. 1.- СПб. 1886.
5. Минаев И, Сведения о странах по верховьям Аму-Дарьи.-СПб 1879
6. Хилютов.Г.А, Британская экспансия в Средней Азии, Т,981, с.7
7. Коновалов Александр. Афганский кризис или Большая игра 1885-1895 годов. 09.09.2021
8. Туркестанские ведомости, 1874, № 43
9. Hopkirk, Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London: John Murray, 1990.
10. Kaye, John W. History of the War in Afghanistan. London: W.H. Allen, 1851.
11. Fromkin, David. A Peace to End All Peace: The Fall of the Ottoman Empire and the Creation of the Modern Middle East. Holt, 1989
12. Noelle-Karimi, Christine. The Pearl in Its Midst: Herat and the Mapping of Khurasan (15th–19th Centuries). Wien, 2014.